

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KUNDUZGI BO'LIM

MUSIQA NAZARIYASI, TARIXI VA AN'ANAVIY IJROCHILIK  
KAFEDRASI

Mamatova Shaxnoza Nasimovna

**MAKTAB O'QUVCHILARINI MUSIQA SAN'ATI VOSITASIDA VATANGA  
MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**  
“5141000-musiqiy ta'lim” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

dots. Kiyamov N.

Bitiruv malakaviy ishi musiqa nazariyasi, tarixi va an'anaviy ijrochilik kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011-yil 26-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

dots. Valixo'jayev N.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2011-yil «\_\_\_» \_\_\_dagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_ ball bilan baholandi (bayonnoma №\_\_\_).

YaDAK raisi:

\_\_\_\_\_

A'zolari:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Samarqand – 2011

**Kunduzgi bo'lim**

«Musiqiy ta'lim yo'nalishi» musiqa nazariyasi, tarixi va  
an'anaviy ijrochilik kafedrasida

**Maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga  
muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik  
muammo sifatida**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi:**  
**Ilmiy rahbar:**

Mamatova Shaxnoza  
dots. Kiyamov N.S.

A.Navoiy nomidagi SamDU kunduzgi bo'lim musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 kurs bitiruvchi talabasi Mamatova Shahnozaning "Maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida" nomli mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

## M U L O H A Z A

Mustaqil O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv muassasalaridan yosh avlodda milliy istiqbol mafkurasini shakllantirishda, ularning ma'naviyatini milliy musiqiy merosimiz bilan boyitishda, yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshish talab qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talabalari asosida umumiy ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori musiqa fanidan yangi dastur ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi "Musiqa vositada o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiya'ni shakllantirish ijtimoiy muammoviy asoslar sifatida" deb nomlansa, ikkinchi bobi "Yuqori sinf musiqa darslari orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uslublari, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari va vositalari" deb nomlanadi. Bitiruvchi Mamatova Shahnoza o'zining bitiruv ishini yozishda maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning istiqbollari, kelajak vazifalari, usul va uslublari shu bilan birgalikda nechog'lik amaliy ahamiyatga egaligini yoritishga harakat qilgan.

Shu munosabat bilan Mamatova Shahnoza tomonidan bitiruv malakaviy ish sifatida yozilganligi ***Yak. D.A.K*** ning barcha talablariga javob beradi.

Ish Mamatova Shahnoza tomonidan mustaqil holda bajarilgan bo'lib, kirish, asosiy qism, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Men, Ilmiy rahbar sifatida Mamatova Shahnoza tomonidan yozib to'liq tugallangan va mustaqil bajarilgan bitiruv malakaviy ishini Yakuniy D.A.K – yig'inida himoya qilishga tavsiya etaman.

***Ilmiy rahbar:***

***dots. Kiyamov.N.S***

A.Navoiy nomidagi SamDU kunduzgi bo'lim musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 kurs bitiruvchi talabasi Mamatova Shahnozaning "Maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida" nomli mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

## T A Q R I Z

Milliy tarbiya tufayli jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan, ya'ni milliy tarbiya yordamida o'quvchilarning bilimini va mustaqilligini anglash o'zgarishlar, yangilanish jarayoni, eng avvalo ma'naviy hayotda ko'zga tashlanmoqda. Yosh avlodga vijdon, poklik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalash, ta'lim – tarbiya sohasida asosiy maqsad hisoblanadi. Aqlan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat milliy masuliyat tuyg'usini angelaydilar, o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazgan mamlakatning mustaqil va barqaror rivojlana boradi.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi "Musiqqa vositada o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiya'ni shakllantirish ijtimoiy muammoviy asoslar sifatida" deb nomlansa, ikkinchi bobi "Yuqori sinf musiqa darslari orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uslublari, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari va vositalari" deb nomlanadi. Bitiruvchi Mamatova Shahnoza o'zining bitiruv ishini yozishda maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning istiqbollari, kelajak vazifalari, usul va uslublari shu bilan birgalikda nechog'lik amaliy ahamiyatga egaligini yoritishga harakat qilgan.

Shu munosabat bilan Mamatova Shahnoza tomonidan bitiruv malakaviy ish sifatida yozilganligi **Yak. D.A.K** ning barcha talablariga javob beradi.

Ish Mamatova Shahnoza tomonidan mustaqil holda bajarilgan bo'lib, kirish, asosiy qism, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Men, taqirizchi sifatida Mamatova Shahnoza tomonidan yozib to'liq tugallangan va mustaqil bajarilgan bitiruv malakaviy ishini **Yakuniy D.A.K** – yig'inida himoya qilishga tavsiya etaman.

***Samarqand shahri 1 son musiqa***

***va san'at maktab direktor:***

***S.Usmonov***

**MAVZU: “MAKTAB O’QUVCHILARINI MUSIQA SANATI  
VOSITASIDA VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH  
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA”**

**R E J A :**

**Kirish**

**Asosiy qism**

**I-bob: Musiqa vositada o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiya’ni shakllantirish ijtimoiy muammoviy asoslar sifatida.**

**1.1.: Musiqa darslarida o’quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning amaliy omili.**

**1.2. Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarda vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirishda musiqa dasturining o’rni va imkoniyatlari.**

**II-bob: Yuqori sinf musiqa darslari orqali o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uslublari, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish yo’llari va vositalari.**

**2.1. Musiqa vositasida o’quvchilarni vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllanganlik darajasining tavsifi.**

**2.2.: Maktab musiqa darslarida o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiya berishning amalga oshirish shakllari va uslublarning mazmuni.**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

**Nota ilovalari**

**MAVZU: “MAKTAB O’QUVCHILARINI MUSIQA SANATI  
VOSITASIDA VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH  
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA”**

**M U N D A R I J A :**

**Kirish**

**Asosiy qism**

**I-bob: Musiqa vositada o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiya’ni shakllantirish ijtimoiy muammoviy asoslar sifatida.**

**1.1.: Musiqa darslarida o’quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning amaliy omili.**

**1.2. Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarda vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirishda musiqa dasturining o’rni va imkoniyatlari.**

**II-bob: Yuqori sinf musiqa darslari orqali o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uslublari, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish yo’llari va vositalari.**

**2.1. Musiqa vositasida o’quvchilarni vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllanganlik darajasining tavsifi.**

**2.2.: Maktab musiqa darslarida o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiya berishning amalga oshirish shakllari va uslublarning mazmuni.**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

**Nota ilovalari**

## **Kirish.**

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi qonun talablaridan kelib chiqib, butun mamlakatimiz xalq ta’limi tizimida yosh-avlodga jahon andozalariga xos va mos keladigan ta’lim-tarbiya berishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini belgilash, ularda shaxsning intellektual qobiliyat darajalarini aniqlash, uni bosqichma-bosqich talab darajasida ro’yobga chiqarish bilan birga shaxsning g’oyaviy-ahloqiy sifatlarini tarbiyalash vazifasini birinchi o’ringa qo’ymoqda. Uning eng asosiy o’zagini vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirish, shu bilan birga tug’ilib o’sgan vatanini sevish, uni ko’z qorachig’idek asrash, shuning barobarida o’zga xalqlar qadriyatlarini, urf-odatlarini va madaniyatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash kabi ilmiy-pedagogik-psixologik asoslar tashkil etildi.

Bundan asosiy maqsad va vazifalar umumta’lim maktablarining o’quvchi-yoshlarida vatanni sevish, uni ko’z qorachig’idek asrash va shuning barobarida vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirish, tarbiyalash sohasidagi g’oyat muhim pedagogik-psixologik muammolarni shakllantirish, tarbiyalash, hal qilish kabi vazifalar kelib chiqadi. Uning eng g’oyaviy asosi, pedagogik-psixologik vazifasi insonparvarlik g’oyalari tom manoda o’quvchilarning o’z etiqodlariga aylanishi va keyinchalik ushbu g’oyalar har bir o’quvchi shaxsining jamiyat manfaatlarini yo’lidagi yillar davomidagi hayotiy-tajriba faoliyatining negizini taminlashdan iborat his-tuyg’ular aks etishi shart.

Umuman olganda vatanparvarlik tarbiya deganda biz kattalar ko’p tajribalarga egamiz. Ammo lekin biz vatanparvarlik deganda o’z Ona-Vataniga sidqi-dildan mehr-muhabbat va sadoqat tuyg’usini, shu bilan birga Ona-Vatanni ko’z-qorachig’idek asrashga, uni kerak bo’lsa jonini fido qilib bo’lsada himoya qilishga, tinchlik va xalqlar do’stligi tengligi, tinchligiyu-osoyishtaligi uchun doimiy kurash olib borishga tayyorgarlikni tushunamiz.

5-7 sinf musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish, vatanparvarlik ruhda tarbiyalashning pedagogik asoslari muammosini tadqiq qilish, ilmiy-pedagogik-psixologik manbalarga taya'nib hal qilish biz uchun shu boisidan qiziqish to'g'dirdiki, musiqa san'ati eng nozik ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib tarbiya oluvchilar, tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga chuqur ildiz otganligi, shu bilan birga pedagogik-psixologik jihatdan kuchli hissiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini jamul-jam qilgan holda o'z ichiga oladi. Shu nuqtai-nazardan qarab chiqilganda bu holat ayniqsa 5-7-sinf o'quvchi-yoshlarini estetik va ahloqiy ruhda tarbiyalashni o'zida uyg'unlashtirgan holdagi pedagogik-psixologik murakkab uslubiyatining eng maqbul, eng optimal variantini, o'quvchi-yoshlar qabul qila oladigan eng sodda uslublarini ishlab chiqish zarurligi bugungi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqish va yoritishni taqozo etadi.

Biz tomondan qo'yilgan muammoni o'rganib chiqishda va bir qator ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borishda o'zbek xalq pedagogikasi va pedagogika antologiyasining boy merosiga, vatanparvarlik, ahloqiy-estetik qonun qoidalarga, bir qator pedagogika sohasidagi olimlarning fikrlari, tadqiqotlariga taya'nib bitiruv malakaviy ishimizni yozishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Jumladan ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, o'zbek xalq maqolalri va matallarida, xalqimizning ardog'ida bo'lgan Qobusnoma nashrlarida, "Quroni karim" oyatlari va hadislarida, o'rta asrlarda ijod qilib o'tgan Sharq (Osiyo)ning buyuk qomusiy olimlarining jumladan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, She'roziy, Jomiy, Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy va ko'plab buyuk allomalarning qomusiy asarlarida biz ko'tarayotgan eng dolzarb muammolar o'z ifodasini topganligi bilan ajralib turadi.

Shunday ekan ta'lim o'zbek tilida olib borilayotgan O'zbekiston umumta'lim maktablarida 5-7 sinf o'quvchi-yoshlarini musiqa darslari vositasida vatanparvarlik ruhda tarbiyalashning pedagogik asoslari muammosi hozirgi



kungacha bazi bir ilmiy-tadqiqot ishlarida, ilmiy adabiyot va maqolalarda qiyosiy o'rganilganligi, ushbu muammolar hanuzgacha yetarli darajada u maxsus ravishda jiddiy o'rganib chiqilmaganligi uchun biz shu mavzuni bitiruv malakaviy ishimizda o'rganib chiqishga qaror qildik. Shu boisdan ham biz tomondan qo'yilgan mazkur muammoning dolzarbligiga quyidagi fikrlar sabab bo'ldi:

**Birinchidan** – Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida inson omiliga bo'lgan diqqat-etiborining ortishi.

**Ikkinchidan** – Shaxsni rivojlashtirish masalalariga bo'lgan yangicha yondashuvlarni izlashdan.

**Uchinchidan** – Umumta'lim maktablari sharoitida o'quvchi-yoshlarni ahloqiy tarbiyalashda musiqa tarbiyaviy yo'nalishlariga amalda yetarli etibor berilmayotganligi.

**To'rtinchidan** – Musiqa darslarida ta'lim-tarbiya'ning ilmiy asoslangan shakllari va xilma-xil usullari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir.

Yuqorida biz tomondan aniqlangan va bugungi bitiruv malakaviy ishimizda bayon qilingan fikrlar “Maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida” deb nomlanadigan bitiruv malakaviy ishni yaratish to'g'risidagi tadqiqotning zarurligini tasdiqlab turibdi, uni tajribalar asosida amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda 5-7-sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik ruhda tarbiyalashning samaradorligini oshirishga ijobiy yordam beradi deb hisoblaymiz.

**Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot obyekti** ta'lim o'zbek tilida olib borilayotgan umumta'lim maktablaridagi o'qiydigan o'quvchi-yoshlar.

**Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot predmeti** musiqa ta'lim-tarbiya darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik asoslarini yuzaga chiqarish jarayonidir.

**Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot maqsadi** o'quvchi-yoshlarning musiqiy faoliyati jarayonida ularda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning

pedagogik asoslarini shakllantirish uslubiyatini o'rganish va tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat pedagogik maqsadlarni ishlab chiqish yotadi.

**Bitiruv malakaviy ishning tadqiqotiga shunday faraz** asos qilib olinganki, unga binoan ta'lim o'zbek tilida olib borilayotgan umumta'lim maktablarining 5-7 sinflaridagi musiqa darslarida o'smirlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning sifat va samaradorligi ortadi, qachonki u biz tomondan ishlab chiqilgan quyidagi omillarga bog'liq bo'lsa:

- vatanparvarlik yo'nalishidagi musiqiy asarlarni yig'ish, tanlash va bir tizimga solishdan iborat aniq maqsadlarga qaratilgan, yo'naltirilgan ishning muntazam doimiy ravishda amalga oshirilishiga;

- musiqa san'atini idrok qilish mazmuni, tuzilishi va uslubiyatiga kiritilgan, kiritilib boriladigan musiqiy asarlarni tahlil qilish va idrok qilishda 5-7 sinf o'quvchi-yoshlarining faol ishtirok etishini taminlanishiga;

- maktab musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini tarbiyalash jarayoniga o'qituvchining eng maqbul, eng optimal, eng zaruriy pedagogik rahbarligini amalga oshirishga qaratilgan vazifalarni hal etish choralarini qo'llashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot maqsadi va faraziga muvofiq ravishda uning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

**Birinchidan,** ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarining 5-7 sinflarida dars beradigan musiqa o'qituvchilarining ilg'or sinov-tajribalarini o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish va pedagogik-psixologik imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganish barobarida ushbu mavjud imkoniyatlarni jamlash hamda umumlashtirish.

**Ikkinchidan,** beshinchi va yettinchi sinf o'quvchi-yoshlarini vatanga cheksiz muhabbat va qardoshlik ruhida tarbiyalashda musiqa fanining tutgan o'rni va beqiyos bo'lgan vazifa va imkoniyat darajasini belgilash.

**Uchinchidan,** beshinchi va yettinchi sinflardagi musiqa darslarida umumta'lim maktablari uchun qabul qilingan bugungi kunda shu dastur asosidagi

o'quv materiallaridan pedagogik ta'lim-tarbiya jihatidan maqsadga muvofiq holda keng foydalanishda o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asarlarini yaratish va shu bilan birga tarbiyalashning eng maqbul, optimal metodik usullarini aniqlashdan.

**To'rtinchidan,** umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'lim-tarbiyaviy darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini shakllantirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularning sifat va samaradorligini pedagogik amaliyot jarayonida tekshirib ko'rish va sinovdan o'tkazish.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi** shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlantirish haqidagi pedagogik-psixologik fikrlar, bilish jarayoni hamda o'tkazilgan nazariya bilan amaliyotning chambarchas bog'liqligi to'g'risida ta'limotning O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi va tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'shish, yosh avlodni musiqiy-estetik ruhda tarbiyalashning optimal usullariga doir qaror va buyruqlarning eng muhim qoidalari, yetakchi pedagoglar, psixologlar, yetakchi faylasuflar, ruhshunos olimlar, musiqashunoslar, bastakor va kompozitorlar, tarbiyachi va uslubchilarning umumiy va musiqiy pedagogika sohasidagi qomusiy nodir asarlari, shuningdek o'zbek olimlari, uslubchilari, maktablarning ilg'or o'qituvchilari o'quvchi-yoshlarni musiqa vositalari bilan ahloqiy, vatanparvarlik, qardoshlik va estetik ruhda tarbiyalash kabi bir qator yechilishi zarur pedagogik-psixologik muammolarni ham nazariy ham amaliy asoslab berishga bag'ishlab yozgan asarlaridan iborat bo'ladi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning yetakchi g'oyasi** umumta'lim maktablaridagi musiqa darslari aniq maqsadni ko'zlab muvaffaqiyatli olib borilgan taqdirda vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchi-yoshlarni ahloqiy estetik jihatdan tarbiyalashning samarali bo'lishiga yordam beradi. Uning vazifalari va mantiqiy davomi sifatida biz tomondan quyidagi usullar majmuini belgilab oldik:

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy qoidalarini** asoslash uchun falsafiy, ruhiy-pedagogik va musiqashunoslik asosida yozilgan asarlarini nazariy

jihatdan tahlil qilin; bitiruv malakaviy ishning tadqiqot farazining asosiy bo'limlarini, shu jumladan aniq pedagogik-psixologik maqsadga qaratilgan pedagogik kuzatishlarni tekshirish maqsadida o'rganish va tajriba-sinov ishlarini olib borish, sosiologik so'rov usullari – anketa tarqatish, suhbat va savol-javob o'tkazish, o'quvchi-yoshlarning yozma ishlarini tahlil qilish, tajriba-sinov maydonchalari asosida olingan muhim kerakli ma'lumotlarga statistik ishlov berish va hokazolar.

**Bitiruv malakaviy ishdagi tadqiqotni tashkil etish va amaliy** ishlarni tashkil etish jarayonida quyidagi bosqichlar shartli ravishda belgilab chiqildi:

**Bitiruv malakaviy ishimiz quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:**

a) Falsafiy, ruhiy, pedagogik va musiqiy-uslubiy adabiyotlar o'rganildi, qayta ishlab chiqildi. Biz o'z oldimizga qo'ygan muammoni hal qilishning asosiy nazariy asoslari nuqtai nazarlari belgilanadi, eng kerak, dolzarb faktik materiallar to'planadi;

b) Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi 15, 40, 28 – 51 maktablarida, Samarqand shahridagi 13, 65, 45, 2 – umumta'lim maktablaridagi o'zbek tilida o'qitiladigan maktablarda musiqa darslarining o'tilish holatlari, qanday uslublardan va pedagogik asoslarga taya'nib o'qitiladigan maktablarda musiqa darslarining qanday uslublardan foydalanilgan holda o'qitilishi atroflicha tahlil qilindi va ular keng umumlashtirildi;

v) Tadqiqotning umumiy farazi va boshlang'ich konsepsiyasi hamda tajriba-sinov maydonchalaridagi barcha ishlarning usublari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning fazari 5-7 sinf o'quvchi-yoshlardagi musiqa darslarida tajriba-sinov yo'li bilan tekshirib ko'rildi:

a) Bitiruv malakaviy ish farazini izohlovchi natijalar ishlab chiqildi, uning mazmuni musqia mashg'ulotlarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng maqbul, optimal pedagogik-psixologik asoslari asoslab berildi, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari va uning sifat-samaradorlik vositalarini

izlab topishdan iborat optimal izchil variantlari aniqlandi, o'quvchi-yoshlarning vatanparvarlik va qardoshlik tasavvurlari darajalari aniqlandi;

b) Bitiruv malakaviy ishning yoritish maqsadidagi shakllantiruvchi tajribalar olib borildi. Bu jarayonda ta'lim uslubiyatiga ko'ra vatanparvarlik mazmunidagi musiqiy asarlarni tahlil qilish yuzasidan aniq va pirovard maqsadlarga qaratilgan topshiriqlarni yozma ravishda kiritish amalga oshirildi;

v) Bitiruv malakaviy ish jarayonini nazorat qilish va amalda ijro etish jarayonida shakllantirilgan, buning natijasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari (2006 y) tajriba-sinov maydonchalarida aniqlandi, vatanparvarlik ruhidagi yozilgan musiqiy asarlarni idrok qilish va ijro jarayonining qanchalik shakllanganlik darajalarining mustahkamligi va chuqurligi aniqlandi.

**Biz bitiruv malakaviy ishda qo'llagan tajriba-sinov ishlari** jarayonida tadqiqotning shunday shakllarini, shu bilan birga 5-7 sinf o'quvchilarining vatanparvarlik mavzudagi musiqiy asarlarini tahlil qilish yuzasidan og'zaki va yozma topshiriqlarni bajarishlarini keng va chuqur holda tadbiq etib ko'rdik va tajriba-sinov maydonchalaridan muvaffaqiyatli ravishda o'tkazdik. Tajriba-sinov maydonchalarida o'quvchi-yoshlar radio, gramyozuvlar, televideniya, o'zlarining jonli konsert chiqishlari orqali berilgan va boshqa qardosh xalqlar musiqiy materiallarini umumlashtiruvchi, tahlil qilishga loyiq misollar asosida o'tkazilgan darslarga doir qo'shimga musiqiy axborotlarni tingladilar. Samarqand viloyati Oqdaryo tumani va Samarqand shahridagi maktablarda olib borilgan tajriba-sinov maydonchalaridagi o'tkazilgan darslar o'zbek tilida o'tiladigan o'rta maktablar bazasida o'tkazilgan tajribalarda o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslariga bag'ishlangan dinamikasini yaratish borasida vakolatli hakam desam to'g'ri bo'ladi, bu musiqa o'qituvchilari, sinf rahbarlari fikrlariga asoslangan reyting natijalaridan, qolaversa parallel sinflardagi olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

O'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini pedagogik-psixologik asosida tahlil qilish jarayonining asosiy mezonlari quyidagicha asoslandi.

Musiqiy asarlar mazmunidagi vatanparvarlik ruhidagi musiqiy asarlarni to'laqonli o'zlashtirish, musiqiy asarlarni idrok qilish bilan birga ularni ijro etish jarayonida ulardan foydalanilgan musiqiy taassurotlarning naqadar chuqurligi, xilma-xilligi, ko'p millatga asoslanganligi va yorqin va jozibadorligidadir.

Shundan foydalanib biz o'zimizning bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek kompozitor va bastakorlarining musiqiy asarlarini kiritishni joizdir deb hisobladik. Masalan: G'.Qodirovning "Ona yurtim", "Do'stlik qo'shig'i", Sh.Ramazonovning "O'zbekiston", I.Hamroyevning "Vatan", "M.Burxonov va A.Oripovlar qalamiga mansub "O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi", Z.Tkachning "Mening respublikam", T.Jalilovning "Ona-Vatan", H.Rahimovning "Diyorim o'lkam", S.Yudakovning "Davra qo'shig'i", K.Kenjayeovning "Biz tinchlik istaymiz", A.Espayevning "Qozog'iston salame", S.Yudakovning "Terimchilar qo'shig'i", O'zbek xalq qo'shiqlaridan "Chamanda gul", "Oq terakmi-ko'k terak", "Boychechak", "Gullar bayrami", "Chamandagi gullarmiz", "Onajonlar bayrami" kabi ko'plab qo'shiqlarni bitiruv malakaviy ishimizda qo'lladik va ulardan tajriba-sinov ishlarimizda foydalandik.

**Uchinchi bosqichda** bitiruv ishimizga yakun yasaldi, bitiruv malakaviy ish to'g'risida olib borilgan tadqiqot materiallari jiddiy tahlil qilib chiqildi, o'zimizning ish to'g'risidagi nazariy asoslarimizni bildirdik:

- Bitiruv malakaviy ishimizda olib borilgan tajriba-sinov ishlariga o'zgartishlar, kuzatishlar kiritildi va u umumlashtirildi;
- Xulosa va tavsiyalar ifodalab berildi;
- Bitiruv malakaviy ish adabiy jihatdan rasmiylashtirildi.

**Bitiruv malakaviy ishning yangiligi va nazariy ahamiyati** umumta'lim maktablarining 5-7 sinflarida musiqiy darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini aniqlashdan, tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi jarayonlarning o'zaro bog'liqligini taminlovchi musiqiy asarlarni aniqlash, tahlil qilish uslublari va tuzilmalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati** shundan iboratki, unda maktab musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslari belgilab berilgan. Aytib o'tilgan pedagogik sifatlarni musiqa vositalari bilan tarbiyalash jarayoniga pedagogik rahbarlik qilish va olib borilgan barcha ishlarni yuzaga chiqarish va uni tashkil etish yuzasidan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi va joriy etilgan.

Darslarda o'quvchilarda ta'lim-tarbiya berish yuzasidan biz tomondan taklif etilgan, aniq uslub (metodika) o'zbek tilida o'qitiladigan umumta'lim maktablarining musiqa o'qituvchilariga, uslubchilariga va pedagogika sohasida o'qiyotgan amaliyotchi talaba-yoshlarga, o'rta maxsus bilim yurti, kollejlarning o'quvchilarga amaliy yordam ko'rsatish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishimizning materiallaridan** san'atshunoslik fakulteti, musiqiy ta'lim bo'limi va uch yillik, 5-yillik sirtqi ta'lim oluvchi talabalar o'z jarayonlari va o'qish jarayonlarida umumli foydalanishlari hamda kerakli boy maslahatlarga ega bo'lishlari mumkin, qolaversa malaka oshirish kurslarida o'quvchi shaxsini g'oyaviy-ahloqiy-estetik tarbiyalash borasida maruzalar sifatida foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishn uchun qo'yilgan vazifalar** hal etilganligi bizning taxminimizni tasdiqlaydi va tajriba-sinov maydonchalarida ta'lim tufayli quyidagi natijalarga erishildi:

- 5-7 sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlar musiqa darslariga bo'lgan o'z munosabatlarini ijobiy tumanga qarab o'zgartirdilar;

- o'quvchilar darslarda olgan musiqiy taassurotlari musiqiy asarlarni idrok qilish, kuylash va ijro etishda ongli mazmun va badiiy ifoda vositalari bilan to'ldirildi;

- o'quvchilarning qo'shni respublikalar xalqlari, qardoshligi, ko'p millatli san'at turiga o'z xalqining musiqa ijodkorligiga bo'lgan qiziqishlari faollashdi;

- o'quvchi-yoshlarning vatanparvarlik mazmunidagi musiqiy asarlarini, musiqa ohanglarini bir maqsadga qaratilgan og'zaki va yozma tahlil malakalarini

o'zlari tushuncha oladigan, o'zlari tushunib fikrlaydigan va to'laqonli fikr va mushohada yuritadigan doirada egallashga harakat qildilar.

**Bitiruv malakaviy ishning tajriba natijalari** quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

- **Birinchidan**, o'quvchi-yoshlarning pedagogik-psixologik ahloqiy kamol topishiga qaratilgan vatanparvarlik ruhdagi belgilar majmuasi umumiy ta'lim maktabidagi darslarda ham, shuningdek darsdan tashqari har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyati asosida mazkur jarayon har tomonlama ijobiy amalga oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga ta'lim-tarbiya dasturi materiallarini tahlil qilishning tegishli uslubiyati esa uning sifat va samaradorligi, sifat miqdori va mazmunini ro'yobga chiqarish imonkiyatlarini yengillashtiradi;

- **Ikkinchidan**, o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish muammosi bir tomondan maktab musiqa dasturi asosida musiqa materialini aniq maqsadni ko'zlab tanlash yordamida, ikkinchi tomondan esa musiqa darsining pedagogik-psixologik shart-sharoitlaridan ijobiy foydalanish yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda hal qilinishi mumkin bo'ladi;

- **Uchinchidan**, 5-7 sinflarda o'tkaziladigan musiqa darslarining o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tarbiya'ning pedagogik asoslarini shakllantirish jarayonining samaradorligi ularda musiqiy asarlar mazmunini idrok qilish uchun pedagogik-psixologik jihatdan qanchalik tayyorlashga ham bog'liqdir. O'quvchi-yoshlarni musiqiy asarlarning yaratilish tarixi, uning yozgan mualliflari va ijro etuvchi o'quvchi-yoshlar bilan tanishtirish uslubiyatiga asosan ko'rilgan tayyorgarlik jarayoni asosida vatanparvarlik obrazlarni aks ettirgan asarlarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishni shakllantiradi, shuning barobarida ularning musiqiy madaniyatini boyitadi, musiqada ifodalangan his-tuyg'ularini, kayfiyatlar og'ushida chuqur o'ylab tahlil qilish ruhida tarbiyalaydi;

- **To'rtinchidan**, o'qituvchi tarbiyachi musiqiy asarlarning qanchalik ifodaliligi vositalarini tahlil qilishning zarur malakalarini egallashda o'quvchi-yoshlar bilan aniq maqsadni ko'zlab muttasil ravishda ish olib borar ekan,



o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda san'at sifatida musiqaning ta'sir ko'rsatish yoki ta'sir o'tkazish doirasi ancha kengayadi. Musiqaning badiiy ifoda mohiyatini to'g'ri tushunish, musiqa asarlarining shakllari, tavsiflari, ladlari, ritm xususiyatlari, surati shu bilan birga uning fakturasi xususiyatlarini aniqlay bilish musiqa tilining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni ancha chuqurlashtiradi, uning vatanparvarlik mazmuniga ham hissiy, ham ongli ravishda fikr bildirishni kuchaytiradi.

- **Beshinchidan**, asarlarning musiqaviy ifodaliligi vositalariga qiziqishni faollashtirishga qaratilgan metodik usullar, u yoki bu kabi bilash vazifalarini hal qilish chog'ida o'quvchi-yoshlarni mustaqil izlanish faoliyatlariga jalb etish, ta'limning jamoaviy shakllarini qo'llash kabi bir qator interfaol vositalar 5-7 sinflarda o'tkaziladigan darslarda o'quvchi-yoshlar qalbida vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish va shular orqali o'quvchi-yoshlarda vatanni sevish va qardoshlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga katta yordam beradi.

- **Oltinchidan**, o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun vujudga keltirgan barcha qulay sharoitlarda mazkur jarayon bosqichida o'qituvchi hal qiluvchi rol o'ynaydi, ammo lekin bunda u o'z munosabati faoliyati bilan mashg'ulotlar muhitiga hissiy ko'tarinkilik va ulkan mazmundorlik va qiziqish kiritish, uning borishida yaxshi munosabatni yuzaga keltirish hamda rejalashtirgan muammoni ro'y-rost ro'yobga chiqargan holda chuqur mazmun va kayfiyat bag'ishlashi lozim. Ana shunday tarkibiy qismlar va pedagogik-psixologik asoslar bo'lmasa, musiqa darslari o'rtaga qo'yilgan dolzarb vazifalarni to'la va samarali hal qila olmaydi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot natijalari** o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini keng va to'laqonli yoritish maqsadida o'quvchi-yoshlarni vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalash barobarida ta'lim-tarbiya berishda umumiy ta'lim fanlari rolini oshirish maqsadida xalq ta'limi tizimini yanada yaxshilash va

uzluksiz ravishda doimiy takomillashtirib borish jarayonidan kelib chiqadigan bir qator muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish vazifalariga muvofiq bo'lib, bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri pedagogik amaliyotga bevosita bo'lgan holda tadbiq etilishi imkoniyatiga ega. Nazariy jihatdan asoslangan va tajriba sinov maydonchalarida (maktablardagi bir qator 5-7 sinflarda) tekshiruvdan o'tgan va amaliyot jarayonida o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish orqali ularning ongida musiqani sevish tuyg'ularini tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal qilish imkoninigina yaratib qolmay, balki umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiya berishdan iborat umumiy vazifalarni ro'yobga chiqarishga ham ko'maklashadi. Shu kabi bir qator pedagogik-psixologik islohatlarni samaradorligi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim to'g'risidagi qonun"da ham o'z ifodasini topganligi bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohatlarning sifat va samaradorligi bosqichining boshlanishi deb izohlashni lozim deb hisoblaymiz.

**Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibiy tuzilishi:** Kirish, Asosiy qism, 2 bob, 4 paragraf, xulosa, nota ilovalari va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

## **I-bob: Musiqa vositada o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiya'ni shakllantirish ijtimoiy muammoviy asoslar sifatida.**

### **1.1.: Musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning amaliy omili.**

Ta'lim tizimini yangilash jarayoni mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi kunda olib borilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risida"gi qonunning hal qiluvchi sifat va samaradorligik bosqichidagi eng asosiy masala bu davr talab etgan maqsad va vazifalar XXI – fan texnika va texnologiyalarning gurkirab rivojlanayotgan asrning ma'naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimli, sog'lom bo'lgan barkamol avlodini tarbiyalab xalq xo'jaligiga yetishtirib borishdan iborat xayrli shu bilan birga eng zarur pedagog kadrlarni tarbiyalashdan iborat ezgu ishlar yotadi. Shu nuqtai-nazardan umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulkan pedagogik-psixologik maqsad va vazifalarni hal qilish muammolari yotadi.

Respublikamiz xalq ta'limi tizimini to'laqonli isloh qilishning pirovard maqsadi va vazifalari ham bitta, u ham bo'lsa yosh avlodni jahon andozalariga mos va xos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tubdan yaxshilash, ta'limda sifat va samaradorlikka erishish, ya'ni, ilg'or pedagogik texnika va texnologiyalarni qo'llash, ulardan samarali foydalanish orqali ta'lim va tarbiya berishda shaxsning ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirishdan iborat vazifalar xalq maorifi tizimida o'z yechimini kutib yotibdi. Darhaqiqat uning asosiy negizi musiqa darslarining sifatli va samarali mashg'ulotlar olib borishda o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish, o'quvchi-yoshlarni Ona-Vatanni ko'z qorachig'idek asrash va shu bilan birga o'zga xalqlar bilan inoq va do'st tuyg'ulari ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari tashkil etadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yangilanish va taraqqiyotning o'ziga xos yo'li" nomli kitobida takidlaganidek "Ta'limning yangi demokratik konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak, unga o'zbek xalqining va respublika hududida yashaydigan barcha xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda kiritilishi mumkin"<sup>1</sup> deya o'zbek va qardosh xalqlar madaniyati, mentaliteti, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, san'ati va adabiyoti kabi his-tuyg'ularini tobora yaqinlashuvi ta'lim-tarbiya'ning optimal sifatlarini belgilaydi.

Aynan prezidentimiz tashabbusi bilan Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonun" va Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi ta'lim tizimida tub burilishlar yasadi. Ta'lim tizimiga dunyo andozalariga mos tushadigan mentalitetimizni hisobga olgan holda butunlay yangi texnologiyalar kirib keldi.

Umumta'lim maktablarida hal qilinishi zarur bir qator pedagogik maqsadlar va vazifalar belgilab olindi. Jumladan o'quvchi-yoshlarning chuqur bilim, ko'nikma va malaka, dunyoqarashlarini shakllantirish, o'quvchi-yoshlarning intellektual qobiliyatlarini o'stirish borasida ma'naviy-ma'rifiy kamolini taminlashga qaratilgan ishlar, ularda hissiy ongini oshirish, hayotiy tajribalariga ko'maklashish orqali jamiyat tarixini chuqur o'rganish, eng asosiy bosh maqsad va vazifa yangicha fikrlashga, yangicha tafakkurga ega bo'lgan ijodkor, o'z vatanini sevuvchi vatanparvar shu bilan birga qardosh xalqlar madaniyatini, ma'naviyatini, san'ati va adabiyotini qadrlovchi hamda ulug'lovchi yangi insonni tarbiyalashdek yuksak vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.

Sadiiy She'roziy aytganidek: "Musiqqa inson ruhining yo'ldoshidir".

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: Янгиланиш ва taraqqiyotning ўзига хос йўли. – Тошкент Ўзбекистон нашриёти, 1992 йил, 20 бет.

Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy idrokni tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh masalasi bo'lib turadi.

Sharqning ko'pgina xalqlari kabi o'zbeklar o'tmish avlodning musiqa san'atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridek vujudga keldi va asrlar davomida rivojlanib borib, ijrochilik madaniyatida ham vokal va cholg'u musiqa janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional musiqachilar bizning asrimizgacha ya'ni XX asrgacha amalda nota yozuvini qo'llashmadi.

O'zbek professional ijrochilik madaniyati rivojlanganli sababli, hofiz va sozandalar oldiga qadim vaqtlardayoq alohida talablar qo'yilgan.

Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar ta'lim olganlaridan keyingina professional ijrochi sifatida yetishganlar.

Eng mashhur musiqachilar hatto XX asrlarda ham xon saroylarida xizmat qilish uchun amir saroyiga (yoki boshqa mansabdor shaxslar dargohiga) jalb etilardi. Ular hukmron shaxslarning ijozatisiz xalq oldiga chiqib o'z san'atlarini namoyish qilishdan mahrum edilar.

Ko'p qirrali muhabbat lirikasi lapar va yalla, ashulalar asosini tashkil etgan.

Vatanparvarlik avvalam bor o'z Ona-Vataniga mexr-muhabbat, sadoqat tuyg'ularini, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, xalqlar do'stligi uchun tinimsiz kurash olib borish, aqlan va manan yetuk tarbiyalangan, shuningdek dunyo kishilarini birlashtirib turgan baynarmilal dunyoqarash tuyg'ularini tarbiyalash borish va o'quvchi-yoshlar ongida shakllantirib berishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimini yangilash jarayoni mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida asosiy masala bo'lib, bu davr xalq ta'limi tizimi talab qilgan maqsad va vazifalar XXI – asrning ma'naviy jihatdan yetuk, bilimli barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Xususan umumta'lim maktablari musiqa darslarida vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg'ularini shakllantirishdek ulkan maqsad va vazifalarni hal qilish muammolarini yechish yotadi.

Respublikamiz xalq ta'limini isloh qilishning pirovard maqsadi va vazifasi ham yosh avlodni jahon andozalariga mos keladigan ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash, ta'limda sifat va samaradorlikka erishish, yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim va tarbiya berish, shaxsning ma'naviy – axloqiy sifatlarini shakllantirishdan iborat. Darhaqiqat uning asosiy negizi musiqa darslarini sifatli va samarali olib borishda vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg'ularini shakllantirish tashkil etadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining “Yangilanish va taraqqiyotning o'ziga xos yo'li” kitobida takidlaganidek “Ta'limning yangi demokratik konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak, unga o'zbek xalqining va respublika hududida yashaydigan barcha xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy – mafkuraviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda kiritilishi mumkin” /I.A. Karimov. O'zbekiston: Yangilanish va taraqqiyotning o'ziga xos yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992, 20 – bet/ deya o'zbek va qardosh xalqlar madaniyati, urf – odatlari, san'ati kabi his – tuyg'ularini yaqinlashuvi sifatlarini belgilaydi.

Aynan Respublikamiz Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta'lim to'g'risidagi qonun”ning ishlab chiqilishi ta'lim tizimida tub burilish yasadi.

Shundan kelib chiqib, uzlukchiz ta'lim tizimida, jumladan, umumta'lim maktablarida bir qator pedagogik maqsad va vazifalar belgilab olindi. Jumladan o'quvchilarda chuqur bilim va dunyoqarashni shakllantirish yoshlarning ma'naviy yetukligini taminlash, ularning hissiy ongini oshirish va hayotiy tajribasi orqali jamiyat tarixini puxta o'rganish, shaxsning salbiy xususiyatlariga barham berish yo'llarini izlab topish, eng asosiy bosh maqsad bo'lib, yangicha tafakkurga ega bo'lgan ijodkor, vatanparvar, qardosh xalqlar madaniyatini, san'atini ulug'lovchi baynalmilal insonni tarbiyalashdek vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.

Vatanparvarlik va qardoshlik o'z vataniga mexr – muhabbat, sadoqat tuyg'ularini, tinchlik va xalqlar do'stligi uchun kurash olib borish, aqlan va

manan tarbiyalangan, shuningdek dunyo kishilarini birlashtirib turgan qardoshlik dunyoqarashini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Musiqqa san'ati shunday san'at turidirki, u ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga hissiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu holatlar o'smir yoshlarni estetik va axloqiy ruhda tarbiyalashning eng maqbul usullardan biri bo'lib sanaladi.

Muammoni atroflicha o'rganib chiqish va amaliyot bilan bog'lab tajribada sinab ko'rish uchun biz o'zbek xalq pedagogikasining boy merosiga taya'nib ish yuritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ular xalq maqomlari va matallarida, xalq dostonlarida "Quroni karim" oyatlarida, hadislarda va o'rta asrlarda yashab ijod qilgan buyuk qomusiy olimlardan Forobiy, Ibn Sino, She'roziy, Jomiy, Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ko'plab buyuk allomalarning asarlarida o'z ifodasini topgan.

O'smir yoshlarni musiqqa darslari orqali vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg'ularini shakllantirish, ularni vatanparvarlik va qardoshlik his tuyg'ulari ruhida tarbiyalash muammosi hanuzgacha maxsus o'rganib chiqilmagan, shuning uchun ham mazkur muammoning dolzarbliligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalalariga yangicha yonlashuvlar izlash;
- Uzlüksiz ta'lim tizimida o'smir – yoshlarni axloqiy – estetik his tuyg'ularini shakllantirishda musiqiy tarbiyaviy yo'nalishiga yetarli etibor bermayotganligi;
- Musiqqa darslarida o'quv qo'llanmalarni va uslubiy tavsiyalarni yetishmasligi;
- Mavjud musiqqa darsliklari va dasturlarida vatanparvarlik va qardoshlik his - tuyg'ulari ruhida yozilgan jo'rovoqli, ixcham, o'quvchilar tez o'zlashtira oladigan kuy va qo'shiqlarning talab darajasida emasligi;
- Musiqqa darsliklarida mavzularning juda qisqa bayon etilganligi;

- Musiqa darslarida musiqiy jihozlar, musiqa asboblarining yetishmasligi;
- Maktab musiqa darsliklarida rus kompozitorlari yaratgan asarlar o'zbek bastakorlari asarlaridan ko'pligi;
- Musiqa darslarini o'quvchilar ongida yanada samaraliroq, yanada sifatliroq shakllantirish uchun standart ko'rgazmali materiallarning yo'qligi;
- Musiqa darslarida ta'limning ilmiy asoslangan shakllari; usullari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kabi bir qator muammolarning mavjudligi musiqa darslarini sifat va samaradorligiga salbiy ta'sir etib qolmaydi.

Bizningcha ushbu muammolarni ijobiy hal qilish uchun maktabda musiqa darslarini olib borish orqali ko'proq vatnparvarlik va qardoshlik yo'nalishidagi musiqiy asarlarni tanlash, aniq bir tizimga solishdan iborat pedagogik, psixologik maqsadlarga qaratilgan ishning amaliy ijrosini taminlash, o'quvchilarda vatanparvarlik va qardoshlik his tuyg'ularini shakllantirish jarayonida o'qituvchining ma'lumoti, pedagogik tajribasi, musiqiy asarlarni tanlash, ish rejasiga kiritish va mashg'ulotlarni sifat va samaradroligiga erishishdan iborat vazifalar turadi.

Biz o'ylaymizki, yuqorida bayon qilingan muammolarning yechimiga erishilsa, mutaxassis o'qituvchilar maktablarda musiqa darslarini samarali olib borsalar, musiqa darslari orqali komil inson tarbiyasi shakllanib boradi. Ana shu ezgu maqsad va vazifalarga qaratilgan vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg'ularini shakllantirish borasida Ona – Vatan, do'stlik tinchlik uchun fidoyi, o'z xalqi va qardosh xalqlar musiqiy madaniyatiga nisbatan hurmatda bo'lish, ularning tarixiy – madaniy qadriyatlarni ezozlash kabi his – tuyg'ularni tarbiyalab borishga erishgan bo'lamiz.

Musiqa san'ati san'at turlari ichida shunday bir san'atki, u ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga hissiy psixologik



ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu shu kabi holatlar o'quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik, g'oyaviy-ahloqiy, ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng maqbul optimal usullaridan sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishda muammoni atroflicha nazariy va amaliy o'rganib chiqish, uniamaliyot bilan bog'lab amalga oshirish barobarida tajribada sinovdan o'tkazish uchun biz o'zbek xalq pedagogikasi va analogiyasi, o'zbek xalq pedagogikasining boy va izchil merosiga taya'nib ish yuritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ular xalq maqollari, xalq matallarida, xalq dostonlarida, "Quroni Karim" oyatlari va hadislarida, o'rta asrlarda yashab ijod qilgan qomusiy olimlar kabi ko'plab vatandosh allomalarimizning yetti iqlimga dong'i ketgan asarlarida keng va atroflicha tushunarli tilda o'z ifodasini topgan.

Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan o'zbek umumta'lim maktablarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, o'quvchi-yoshlarda jonli his-tuyg'ularni, idrokni shakllantirish o'rganib chiqilmagan, yoki ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham mazkur muammoning dolzarbligiga quyidagi omillar sabab bo'ldi:

- Shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalalariga yangicha yondashuvlarni izlab topishdan;

- Umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni ahloqiy-estetik his-tuyg'ularini shakllantirishda musiqaning tarbiyaviy yo'nalishiga yetarli etibor berilmayotganligidan;

- Maktabda musiqa darslarini olib borishda maxsus, eng dolzarb bo'lgan o'quv qo'llanmalar va uslubiy tavsiyalarning yetishmasligidan;

- Mavjud musiqa darsliklari va dasturlarda vatanparvarlik ruhida yozilgan qiziqarli kuy va qo'shiqlarning zamon talabi darajasida emasligidan;

- Musiqa o'qituvchilari va tarbiyachilari eski sovet zamonida yozilgan asarlarni dars jarayonida foydalanilayotganligidan;

- Musiqa darsliklarida mavzularning juda qisqa va tor doirada bayon etilganligidan;

- Musiqa darslarida musiqa asbob va qulay jihozlarning yetishmasligidan;
- Ayrim umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsini olib borish uchun maxsus xonalarning yo'qligidan;

- Musiqa darslarini o'quvchilar ongida yanada samaraliroq, yanada sifatliroq shakllantirish uchun mavjud ta'lim standartlarida ko'rsatilganidek ko'rgazmali materiallarning mutlaqo yo'qligi, bor bo'lsada ular nihoyatda eskirganligidan;

- Musiqa darslarida ta'limning ilmiy asoslangan shakllari, asoslari, usullari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kabi ko'plab muammolarning mavjudligi musiqa darslarida sifat va samaradorlikka salbiy ta'sir etib qolmaydi.

Bizningcha ushbu mavjud muammolarni ijobiy hal qilish uchun maktab musiqa darslarida, musiqa darslarini olib borish orqali ko'proq etiborni vatanparvarlik yo'nalishida yozilgan musiqiy asarlarni tanlash va bir qolipga solishda iborat pedagogik-psixologik maqsadlarga qaratilgan bitiruv malakaviy ishining amaliy ijrosini taminlash, o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini tarbiyalash, shakllantirishda o'qituvchining ma'lumoti, pedagogik tajribasi, u tomonidan musiqa asarlarini tanlash, o'quv rejasiga kiritish, musiqiy asarlarni tezlashtirish hamda mashg'ulotlarning sifat va samaradorligiga erishishdan iborat pedagogik vazifalarning amaliy ijrosini taminlashdek masalalar turadi.

... “Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch, mehr-muhabbat, insof, sabr-toqat, adolat, marifat tuyg'ularini singdirish lozim”...<sup>1</sup> degan edi Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak davr va zamonning o'zgarishi, yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ta'lim tizimidagi islohatlar shakli-shamoli tufayli ma'naviyatimizni, qadriyatlarimizni o'rganish yangicha mazmun bilan boyitilgan yo'nalish kasb etadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy va asriy an'anaga bo'lgan qiziqish va munosabat orqali uni baholash

---

<sup>1</sup> Каримов И.А, Ўзбекистон. Янгиланиш ва тараққиётнинг ўзига хос йўли. – Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 1992 йил, 28 - бет

mexanizmidagi masalalarini qayti ko'rib chiqish va davrga mos holda tadbiq etish vazifasi maydan yuzini ko'rdi.

O'zbekistonning o'z madaniyati, urf-odatlari va boy tarixga ega bo'lgan Respublika, davlat sifatida butun jahon davlatlari doirasiga kirishi, 100 dan ziyod davlatlar bilan tinchlik, totuvlik, integrasiya, fan, texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, chet el investisiyalaridan foydalanish borasidagi aloqalari tahsinga sazovordir, shu bilan birga mamlakatda millat va Ona-Vatan taqdiriga nisbatan jonkuyar insonlarni tarbiyalash muammosini kun tartibining asosiy masalasi qilib qo'ydi.

O'zbekistonda yangi ma'naviy muhitni hosil qilish, o'quvchi-yoshlar ongida pedagogik-psixologik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ishlar tanlanib olindi. O'zbekiston o'z mustaqilligini elon qilganidan so'ng jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining bugungi bosqichidagi pedagogikasining davr talab etgan vazifalaridan biri yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalashdan iborat. Shunday ekan maktab o'quvchi-yoshlarini musiqa darslari orqali Ona-Vatanga cheksiz muhabbat his-tuyg'ularini shakllantirib borish zarurligi davr talabiga aylangan holda davlat ahamiyatiga molik ishlardan eng asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Ushbu yo'nalishda maktab o'quvchi-yoshlarida vatanparvarlik his-tuyg'ularini tarbiyalash bizning bitiruv malakaviy ishimizning pedagogik asosini tashkil etadi. Bu borada biz tomondan o'tkazilgan bir qator sosiologik tadqiqotlarimizda, xususan, Samarqand viloyati tuman va shaharlaridagi mavjud umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarini o'tish, kuzatish, suhbat o'tkazish ishlari jarayonida 5-7 sinf o'quvchi-yoshlarini musiqa san'ati yo'nalishida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosini hal qilish asosiy vazifa qilib belgilandi. Bu maqsad va vazifalar tasodifiy bo'lmay, balki O'zbekistonda pedagogika fani va amaliyotining maktab o'quvchi-yoshlarining hozirgi zamon mualliflari bastakorlar, kompozitor va musiqashunos olimlar yozgan asarlari asosida musiqiy tarbiyalash yoki musiqa vositasida tarbiyalash sohasi endigina o'rganilmoqda desak aniqroq bo'ladi. Shuning uchun ham o'zbek olimlari, uslubchilari o'quv-tarbiyaviy

jarayonga katta e'tibor bergan holda yoshlarning musiqa vositasida ahloqiy-estetik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asoslarini, nazariy va amaliy ishlanmalarni yaratish ustida tinmay mehnat qilil, ko'pgina ishlarni, bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishga kirishdilar. Mavjud muammolarni hal qilish vazifalari insonparvarlik g'oyalari bilan o'quvchi-yoshlarning qalbidan o'rin olish va qalbiga singib borishi, asta-sekinlik bilan jamiyat manfaatlari yo'lidagi hayotining asosiy negizini tashkil etadi.

Vatanparvarlik tarbiya masalarini tizimli, tartib bilan qarab chiqishda hamda elon qilingan barcha musiqiy asarlarning tizimlauvida avvalo ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi emas, balki bir-birini to'ldirib berishi ko'zga tashlanib boradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyatimizni ma'naviy-ma'rifiy tomondan rivojlantirish uchun yosh avlod tarbiyalanayotgan umumta'lim maktablari sharoitida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim pedagogik asoslardan biri bo'lib hisoblanadi.

Umuman inson va xalq, millat, shaxs va jamiyat, san'at shu bilan birgalikda bugungi kun bastakorlari, hozirgi zamon kompozitorlari tomonidan ko'plab yaratilgan musiqiy asarlarning markazidagi masalalarga oydinlik kiritildi. Shunday ekan musiqiy san'atning har bir jabhasi yoki janri shunday mavzularni qamrab oladiki, ularda xalqning, millatning, vatanparvarlik his-tuyg'ulari aks ettirilgan.

Agar tarixga murojaat qiladigan bo'lsak ko'pgina ajoyib musiqa asarlari odamlarni ikkinchi jahon urushi yillarida kuylagan, tinglagan musiqiy asarlarining orasida o'z Ona-Vataniga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini, insonparvarlik va insoniylik his-tuyg'ularini shakllantirish, tarbiyalash jarayonida musiqiy san'at ham o'z navbatida katta tarbiya quroli bo'lib xizmat qilgan. Urushdan keyingi davrdagi musiqiy san'ati ham o'z navbatida vatanparvarlik mazmunining ulug'ligi bilan ajralib turadi. Jumladan bu davrda tinchlik uchun kurash, xalqlar do'stligini va birodarligini kuylash mavzularida ko'plab musiqiy asarlar yaratildi. Ayniqsa mazkur tarixiy davrlarda B.Baskerning "Nomsiz tepalikda", Ya.Frankelning "Turnalar" kabi yuzlab xotira qo'shiqlari mamlakatga keng yoyildi. Shunday

qo'shiqlari jumlasiga Alishe'r Navoiyning "Qora ko'zim", A.Yespayevning "Bolabek qahramoni" kabi ko'plab asarlarni kiritish mumkin. O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari, musiqashunos olimlari, ko'zga ko'ringan ulug' shogirdlari ham urushdan keyingi yillarda Ona-Vatanni ulug'lovchi vatanparvarlik ruhda yozgan bir qator ko'plab musiqiy asarlarni dunyoga keltirdiki, ular o'z davrida tahsinga sazovor bo'lgan asarlar jumlasidan joy olib, ular bugungi kunda ham sevib kuylanib, qayta ishlanib bolajonlarimizga xizmat qilib kelmoqda. Shular jumlasiga I.Akbarovning "Ona yurtim", I.Xamrayevning "Vatan", Sh.Ramazonovning "O'zbekiston", K.Kenjayeovning "Biz tinchlik bolalari" va bir qator o'zbek xalq qo'shiqlarini kiritish mumkin, jumladan, "Chamanda gul", "Boychechak", "Oq terakmi, ko'k terak", "Chegarachi" va hokazo.

Shunday bo'lsa-da bugungi kunda ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni musiqa darslari jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi hozirgi kungacha to'liq o'rganib chiqilmaganligi bilan qimmatlidir. Shuning uchun ham bizning tomondan "O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari" deb nomlangan mazkur muammoning dolzarbligiga quyidagi asosiy omillarni kiritish lozim deb hisoblaymiz:

1. Kundan kun rivojlanib borayotgan jamiyatimiz ijtimoiy hayotida inson omiliga bo'lgan etiborning ortib borishi, hamda shaxsni rivojlantirish masalariiga yangicha yondashuv va uslublarni izlab topishdan.

2. Umumta'lim maktablari sharoitida o'quvchi-yoshlarni ahloqiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda musiqaning tarbiyaviy yo'nalishiga amalda yetarli etibor berilmayotganligiga.

3. Musiqa darslarida ta'limning ilmiy asoslangan shakllari va usullari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi muammolaridir.

Yuqorida bayon qilingan barcha fikr va mulohazalar, biz tomondan bildirilgan takliflarning barchasi umumta'lim maktablari musiqa darslarining 5-7 sinf o'smir yoshdagi o'quvchi-yoshlarida vatanparvarlik his-tuyg'ularini

shakllantirish jarayonida tarbiyalab borishning ilmiy-pedagogik asoslari o'quvchi-yoshlarni musiqa vositasida yoshlikdan tarbiyalab borish va bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ishlab chiqish zarurligini tasdiqlab turibdiki, uni amaliy ijrosini taminlash, tizimli amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida musiqiy-nafosat, ilmiy-pedagogik tarbiya'ning yanada samaradorligini oshirishga katta yordam berishi shubhasizdir.

## **1.2. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda musiqa dasturining o'rni va imkoniyatlari.**

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi paragrafida boshlang'ich sinflarda o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish va o'stirib borishda musiqa dasturining o'rni va pedagogik imkoniyatlari cheksizdir. Bunda boshlang'ich sinf musiqa dasturida musiqa madaniyati darslarida o'quvchilardagi vatanparvarlik his-tuyg'ularining o'rni va tarbiyaviy imkoniyatlari nuqtai-nazardan tahlil qilinib borildi.

Vatanparvarlik his-tuyg'ularidan foydalangan holda musiqa dasturi bo'lgan musiqaviy materiallarni umumlashtirib shunday xulosaga keldikki, o'quvchi-yoshlar o'zlarining ijod namunalarini zarur hajmda, ya'ni bilganlaricha, malum tartib qoida asosida o'rganadilar. Bundan tashqari o'zbek bastakorlari malum darajada vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan musiqiy asarlar ijod qiladilar va qilmoqdalar. Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida o'qishlar o'zbek tilida olib borilayotgan umumta'lim maktablari misolida o'tkazilgan sosiologik so'rov va pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan ko'pchilik musiqa o'quvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish maqsadida o'quv materialini maqsadga muvofiq rejalashtirish va o'qitishning uslubiy samaradorligini taminlashda yetarli malaka va ko'nikmalarga ega emaslar.

Musiqa o'qituvchilarining ilg'or boy tajribasi shuni alohida ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari va istaklarini rivojlantirishga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning idrok etish qobiliyatlarini shakllantirishda o'quvchi-yoshlarning ahloqiy qiyofasi, uning chuqur bilimi, o'quv materiallarini mazmunli va ta'sirchan obrazli qilib bolalar tilida yetkazib berilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z faniga nisbatan qiziqтира olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-ahloqiy tushunchalarning mohiyatini his qilish uchun u yoki bu holatda barcha unga amal qilishi hamda uning natijasi qanday yakun topganligini sinchkovlik bilan kuzatib, fikr yuritishi va o'zining shaxsiy xulosasini chiqarib olishi lozim.

Ma'naviy-ahloqiy meyorlarni ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega.

Ma'naviy-ahloqiy meyorlar ko'p bor sinovdan o'tkazilganidagina barqarorlik kasb etadi va u kishining haqiqiy tayanchi sifatida uning hayotiy hatti-harakatlariga turtki beradi. Uning qay holatda qanday ish tutishi kerakligini aniq ko'rsatadi.

Xalq qo'shiqlarida berilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan davatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar uning asrlar davomida orttirgan tajribasi natijasida qayta tekshirilib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalar mahsulidir. Xalqning har bir aytgan ijobiy gapi to'g'ri va uni uqib olmagan kishi hayotda pand yeyishi tabiiydir.

Ma'naviy-ahloqiy tushunchalarni bilib olish kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqyealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

O'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazgan davri davomida sinf, maktab jamoasi, oila, mahallada o'z o'rnini topa olishida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Aniq mazmun asosida o'tkaziladigan musiqa darslari, sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar va umumiy tarzdagi musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa darslarining haqiqiy ta'lim-tarbiya vositasiga aylanishida o'qituvchisining bilimi, iqtidori, jonkuyarligi, targ'ibotchiligi, mehribonligi, maslahatgo'yiligi yetakchi ahamiyatga ega.

Musiqaning buyuk qudrati shundaki u o'quvchining ichki dunyosiga kirib, hissiyotlarini junbushga keltira oladi. Psixolog olimlarning takidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab to'rlarining eng yirik, eng nozik,



boshqa hych qanday vosita ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvat zahiralari saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltira oladi.

Qo'shiqchilik haqida tarix fanlari doktori Hojiakbar Hamidov quyidagilarni bayon qiladi: "Qo'shiqchilik o'zbeklar ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy hayotining muhim bo'g'ini bo'lib, u kishilarning mavjud ijtimoiy tuzum, xususan, xonlar va boylarga, davlat tuzilmalariga, hayot og'irliklariga nisbatan qarashlari ham ifodasini topardi. Ayni paytda qo'shiqlar kishilarning kundalik turmush tarzi ham edi.

Qo'shiqlar kishilarni yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi vosita sifatida ham obro'-etibor qozondi. Ular to'ylar, yirik marosimlar, xalq sayillari va bayramlarining zaruriy qismiga aylangan edi. Ularda kishilar ruhiy holatda chuqur o'zgarishlar yasashga qodir kuch sifatida o'z ijtimoiy qadrini oshirib bordi".

Musiqa san'atining o'zi xos shunday qudrati borki, bu boshqa hych qanday predmet yoki san'at turlarida mavjud emas. Bu insonga kuchli ta'sir eta oluvchi "qurollar" zahirasida musiqa san'atining o'ziga xos kasbiy xususiyatlari, vositalar "arsenali"da tovush tembri (bo'yog'i), tovushlar baland-pastligi, ritm (usul) xilma-xilligi, garmoniya tuzilishlari, interval va akkordlar tuzilishidagi rang-baranglik, dinamik tus va boshqalar insonni his-hayajonga soladigan, uning tuyg'ulari olamida mo'jizalar yaratadigan beqiyos ta'sir vositasidir.

O'quvchi shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaratilgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, musiqa inson ruhiy olamiga, ruhiyatiga eng tez, eng faol va bevosita ta'sir etishi bilan ajralib turadigan eng muhim san'at turiga kiradi. Musiqa bu ilohiy bir kuch bo'lib yoki olloh tomonidan yuborilgan, singdirilgan ta'sir etuvchi ulkan kuchga ega bo'lib, insonning qalban his etish tuyg'ularini his etishga qodirdir.

Musiqaning o'ziga xos xususiyati his-tuyg'ular, ruhiy hislatlarning nozik tomonlarini ifodalash bilan birga inson ichki olamiga kuchli va chuqur ta'sir etishidir. Shuning uchun ham musiqaning ifodaliligi qadim zamonlardan tarbiya vositasi ekanligi bizga malum.

Musiqaning ta'lim-tarbiyaviy va ilmiy-pedagogik asoslarining ahamiyati shundaki, u inson qalbini kamol toptirish va yuksaklarga ulug'lash xususiyatiga egadir. Musiqa tom manoda insonga va insonlarga bo'lgan insoniy munosabat asoslarini shakllantiradi. Mana shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik, vatanga muhabbat va o'zga xalqlar san'atiga hurmat ruhida tarbiyalash vazifasi xalq ta'limi tizimida doimiy ravishda eng muhim hal qilinishi lozim muammolar qatoridan o'rin egallashi bilan ajralib turadi.

Mazkur muammoni hal qilishda o'zining serqirra mehnatlari bilan hissa qo'shgan olimlardan B.V.Astafyev, D.B.Kabalevskiy, O.A.Apraksina, X.N.Nurmatov, F.Q.Jo'rayev, M.G'aiyev, G.Holiqulova, N.M.Toliboyev, Q.M.Mamirov, N.S.Kiyamov kabi o'nlab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qo'shgan hissalarini takidlab o'tmoq zarur. Ularning ilmiy tadqiqotlarida yosh avlodning musiqiy-estetik, vatanparvarlik tarbiyasini maqsadga muvofiq tashkil etish muhimligiga izchil urg'u beriladi, shu bilan birga bir qator ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarni ahloqiy tarbiyasida musiqa san'atining izchil va tizimli ta'sirini belgilab beruvchi, hal qiluvchi ahamiyati, o'rni va pedagogik-psixologik imkoniyatlari takidlanadi.

Jumladan, bolalar musiqasiga bag'ishlangan Xalqaro IX musiqa anjumanida D.B.Kabalevskiy takidlagan ediki, "umumta'lim maktablaridagi ommaviy musiqiy tarbiya'ning bosh vazifasi shunchaki musiqani o'rganish emas, balki musiqa orqali o'quvchi-yoshlar ruhiy olamiga dastavval ahloqiy olamiga ta'sir etishdir" deydi olim. Makkur qoidani qimmatini shundan iboratki, u musiqani uning ijtimoiy-ma'naviy vazifasini ochib bergan holda top estetik hodisa doirasidan ancha kengroq bo'lgan doiraga olib chiqadi.

B.V.Astafyevning takidlashicha shaxs xarakterining tashabbuskorlik uyushganlik, topqirlik, tanqidiy kabi belgilarini tarkib toptirishda, ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni bolalar, o'quvchi-yoshlar ongiga singdirishda "hyech qanday boshqa san'at rivojlanishining bu yo'nalishiga musiqa kabi bunchalik kuchli dajarada ta'sir etishga qodir emas".

D.B.Kabalevskiy takidlaydiki, bolalar musiqa tarbiyasi bo'yicha uslubiy ishlarni yaxshi yo'lga qo'ymay turib ma'naviylik va yuksak madaniyatni rivojlantirish mumkin emas. Bu borada O.A.Apraksina shunday deb yozgan edi. "Albatta musiqa, musiqiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi, ammo bu ishning ahamiyati ikchi sababga ko'ra muhimdir".

Birinchiidan – bu sohadagi ijodiy qobiliyat boshqa sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchiidan – musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning o'zi ham katta ahamiyatga ega, chunki musiqaning ko'zga ko'rinmas sehrli olami o'quvchi-yoshlarning ruhiy olamini boyitadi.

Shunday ekan, o'quvchilar maktabni tamomlaganlaridan keyin ham keyingi musiqiy rivojlanishlari maktabda olgan ilk bilim va ko'nikmalariga jumladan to'plagan malakalari asosida musiqiy hayotning voqyealarini idrok qilish va baholab berishlari mumkin.

O'quvchi-yoshlarni musiqiy ohanglar, qo'shiqlar ta'siri ruhida tarbiyalash xalq musiqiy-madaniyatining asosidir. Shu o'rinda mashhur pedagog va olim V.A.Suxomlinskiy musiqiy tarbiyasiz bolaning to'laqonli aqliy rivojlanishi mumkin emas, musiqa insonlarga tabiat ato etgan ahloqiy munosabatlar, mehnat go'zalligi tomon yo'l ochadi. Insonlarda musiqa tufayli nafaqat atrof, olam, balki o'zidagi go'zallik haqida ham tasavvur uyg'onadi, deb hisoblagan edi. Uning fikricha, agar bola ilik yoshida musiqiy asar go'zalligini qalban idrok etsa, bola ohanglarda insoniy tuyg'ularning xilma-xil, rango-rang belgilarini his qila olsa, o'qituvchi, tarbiyachi, uslubchilar tomonidan har xil, turli xil uslubiy ishlar amalga oshirilsa, u musiqa deb nom olgan madaniyatning hyech qanday vosita va usullari

bilan erishib bo'lmaydigan pog'onasiga ko'tariladi. ("Tarbiya haqida. V.A.Suxomlinskiy, M., 1973 yil, 50 bet).

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda musiqa darslari orqali o'quvchilarni vatanparvarlik kuy va qo'shiqlardan yetarli darajada foydalangan holda, shuningdek tarbiya'ni amalga oshirishning turli xil uslublaridan yetarlicha ijobiy foydalanilsa maqsadga muvofiq ishlarni amaliy ijrosi taminlangan bo'ladi deb o'ylaymiz.

## **II BOB: Yuqori sinf musiqa darslari orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uslublari, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari va vositalari.**

### **2.1. Musiqa vositasida o'quvchilarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllanganlik darajasining tavsifi.**

Musiqa vositasida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllanganlik darajasining tavsifida o'quvchi-yoshlarga dars berishda vatanparvarlik his-tuyg'ularini o'stirishda turli xil pedagogik-psixologik uslublar yordamida musiqaning tarbiyaviy ta'sirini aniqlashning eng maqbul uslubini izlash amalga oshirildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning mazkur eng asosiy yo'nalishida asosiy baho (reyting) o'lchoviga quyidagilarni kiritishni maqul deb hisobladik.

Birinchi – musiqa darslari mazmunida vatanparvarlik aspektlarning o'zlashtirilishi.

Ikkinchi – bastakor va kompozitorlar tomonidan yozilgan asarlarni idrok etish va ijro qilish mobaynida musiqiy hayajonning qanchalik ta'sirchanligi va yorqinligidir.

Shunday ekan, umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlari o'qituvchi tomonidan foydalanilgan xilma-xil uslublar ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarda musiqali samaradorlikning boshlang'ich darajasi baho o'lchovini (mezoni) belgilash uchun o'quvchi-yoshlarning bundan quyi sinflarda hosil qilingan ko'nikma va malaka tushunchalari, asarlarning tarbiyaviy mazmunini tushunishi, musiqa va matn so'zlari mualliflarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va tarbiya'ning samarali shakl va usullaridan foydalanilgan holda o'quvchi-yoshlar o'rtasida olib borilgan tajriba-sinov (eksperiment) ishlari shuni aniq isbotladiki, vatanparvarlik his-tuyg'ularning shakllanishida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlari jadal va muvaffaqiyatli amalga oshiriladi,

agar:

- musiqa o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonini asar mazmuni va tavsifini chuqur fikrlashga yo'naltira olsa;

- o'quvchi-yoshlarda musiqa va matn so'zlari mualliflari tamin etgan jozibadorlik, his-hayajonni idrok etish uchun malum shart-sharoit yaratilsa;

- rejalashtirilgan va belgilangan vazifalarni hal etish uchun kompleks yo'l tutilgandagina, unda musiqa bilan hamohanglikda o'quvchilar faoliyatining boshqa turlari ham ishtirok etsagina biz tomondan yozilgan bitiruv malakaviy ishimizda qo'llanilgan va to'g'ridan to'g'ri ko'llagan uslublar amalga oshirilsa unda tadqiq qilinayotgan muammoning yoki dolzarb mavzuning yechimiga erishgan bo'lamiz.

Shu o'rinda takidlash joizki, o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik ruhda yozilgan, va shu ruhdagi tarbiya bilan yo'g'rilgan musiqiy asarlar tahlili bilan tanishib chiqishingizni joizdir deb hisobladik.

Vatanparvarlik mazmundagi obralar tavsifi bilan bog'liq bo'lgan umumiy va shaxsiy bilimlarining hajmini aniqlash yuzasidan o'quvchi-yoshlardagi, jumladan yuqori sinf o'quvchilari musiqa dasturidagi musiqa asarlarini tahlil qilish modelidan kelib chiqib, biz umumiy va shaxsiy tushunchalar bo'yicha asarlarning musiqiy ifodaliligi vositalarini tahlil qilish jadvalini tuzib chiqdik. Misol uchun bir qator musiqa asarlarini keltiramiz. Jumladan A.Rahmat she'ri va X.Muhamedova musiqasi bilan "Har dam ilgari" qo'shig'ini tahlil qilish usullarini namunasini keltirib o'tishni lozim deb hisobladik.

1-jadval:

"Har doim ilgari" qo'shig'ining musiqiy ifodaliligi vositalarini tahlil qilish uslubi jadvali

## 1-jadval

Shakli	Kupletli, boshlanishi va tugallanishi tantanavor ruhda, yorqin ko'rinishda yozilgan
Musiqiy tavsifi	Mardonavor, shahdamlikni, parvozli tovushlarga ega. Asarning ohangi, asarning ijrosini to'ldirib borish bilan ajralib turadi
Ritm tuyg'usi	Shoshmasdan, yengil marsh ruhida yozilgan
Ladi	Sol major tanolnostida yozilgan
Surati, o'lchovi	Marsh suratida $\frac{3}{4}$ o'lchov birligida yozilgan

Bitiruv malakaviy ishning borishida yuqori sinf o'quvchilarida musiqa mashg'ulotlarida shunday jadval asosida tatbiq etilayotgan muammoning tahlili bir tomondan o'quvchi-yoshlarda baynalmilal va Ona-Vatan to'g'risidagi musiqa asarlari tahlili to'g'risidagi umumiy va shaxsiy bilimlarni to'plash imkonini bersa, ikkinchidan, musiqani idrok qilish va ijro etish jarayonida chuqur, hissiy va ongli taassurotlarning umumlashishiga yordam beradi.

Musiqa asarlarini tushungan holda idrok qilish dinamikasini aniqlash maqsadida o'quvchilarda o'quv yilining birinchi yarmidan keyin va o'quv yilining ikkinchi yarmida "Mening musiqadan olgan taassurotlarim" mavzusida yozma ishni bajarishlarini taklif etdik.

Topshiriqning maqsadi:

1. Mavzu bo'yicha musiqa asarlarining nomlarini aniqlashdan.
2. Musiqa va so'z matni mualliflarining nomlarini aniqlashdan.

3. Asarning musiqaviy ifodaliligi vositalarini aniqlashdan.

4. Musiqa asarlarining ijrochilarini aniqlashdan iborat edi.

Quyida topshiriqning bajarilishini tavsiflovchi jadval keltirildi.

2-jadval:

Musiqa asarlarining mavzu obrazi bo'yicha va shu asarlarning nomlarini aniqlashdan iborat % (foiz hisobida)gi jadval keltiriladi.

2-jadval:

1	2				3			
Yozma topshiriqlar turi	Tadqiqot o'tkazilgan sinflar				Nazorat sinflari			
Sinflar	4	5	6	7	4	5	6	7
Musiqa asarlarining mavzu obrazi bo'yicha nomini aniqlash	57 %	61 %	65 %	76%	36%	39%	41 %	46%
	85 %	86 %	80 %	82%	41%	44%	50 %	56%

Ushbu tadqiqotga ilova: Darhaqiqat shunday qilib maxsus topshiriqni bajarishga doir olingan tahlil natijalari va ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, biz tomondan ishlab chiqilgan modelni va asarlarning musiqaviy ifodaliligi vositalarini foiz (%) hisobidagi jadvalini yozma shakldagi uslubining qo'llanilishidagi ijobiy samaradorligi jadvalda ko'rsatilganidek 50% dan ziyodga oshdi. Bu esa biz tomondan o'tkazilgan tadqiqot ishining o'quvchi-yoshlarda o'tkazilgan kichik bir tadqiqot uslubi bo'lib, o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tarbiya usullarini pedagogik-psixologik asoslarini tasdiqlab va shunday dolzarb uslublarni qo'llash natijasida to'laqonli amalga oshganligi bilan qimmatli va quvonchlidir. Demak, jadvalda biz tomondan ishlab chiqilgan jadal yuqori sinf



musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ongini ijobiy tomonga o'zgarganligini ko'rsatib turibdi.

Ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning yangidan-yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa o'quvchida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilib, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning o'quvchilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mavzu jihatidan turlicha bo'lgan bolalarbop xalq qo'shiqlarini muntazam ravishda o'rganib borish, ijro etish maktab o'quvchilarining nafaqat repertuarini boyita boradi, balki ularning milliy ma'naviyatimizga bo'lgan muhabbatini oshiradi, umumiy dunyoqarashlarini kengaytiradi va ahloqiy tuyg'ularining shakllanishiga yordam beradi. Bu tuyg'ular g'oyat ko'p qirrali va xilma-xildir.

Pedagog olimlarning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish to'rt asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Vatani va xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'usi;
2. O'quvchilarning mehnat, kishilar va ular tomonidan yaratilgan nematlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish;
3. O'quvchining jamiyat azolari, qarindoshlari va uni o'rab turgan tengdoshlariga bo'lgan munosabati;
4. Uning shaxs sifatida o'z-o'ziga nisbatan qarashlarini qaror toptiradi.

O'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritgach, milliy-ma'naviyatimizning haqiqiy egasiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri – yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va masuliyatini his etishga o'rgatishdan iboratdir.

Ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni o'quvchilarning Vatanga, mehnatga, insonlarga bo'lgan muhabbati kabi serqirra manbalari unda ma'naviy ehtiyoj va qiziqish uyg'otishda, ma'naviy faoliyat va qadriyatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'naviy-ahloqiy manbalar o'quvchida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlarini shakllantirish vositasidir.

O'quvchilarning ma'naviy fazilatlari ularning aqliy, ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabi serqirrali tarkibiy qismlaridan iborat.

Musiq ta'limi jarayonida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarda insonparvarlik, sadoqat, qanoat, mehr-muhabbat, adolatparvarlik, nafosat, etiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bidatni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar shakllanib boradi.

Axloqiy fazilat, axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar axloq qoidalari yordamida o'quvchilarning boshqarishning o'ziga xos tizimini tashkil qiladi. Axloqiy fazilat o'quvchining ko'pqirrali faoliyati davomida qisman xalq qo'shiqlari vositasida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy fazilatning ko'rinishlari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, masuliyatlilik, sahiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar ahloqiy fazilatga oid tushunchalardir. Bular o'quv faoliyati jarayonida ma'naviy fazilatlar bilan bargalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Jamiyatning moddiy-ma'naviy rivojlanishida diniy ta'limotlar, asrlar davomida tarbiya vositasi bo'lib kelayotgan diniy, ma'naviy qadriyatlar ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Din siyosat emas, balki ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir.

Sharqona tarbiya mezonlaridan inson, etiqod kabi tushunchalar mavjud bo'lib, bu tushunchalarning negizida diniy madaniyatning mohiyati mujassam

etilgan. Diniy madaniyatning zamirida Sharq xalqlari kalom, ya'ni etiqod ilmi tafsir yoki quroni karim sharqi, hadis ahloq-odobga oid diniy ta'limot, fikr, ya'ni ibodat, huquq, ahloq, tarix, dunyoviy bilimlarni egallash yotadi.

Bitiruv malakaviy ishni olib borishdagi tadqiqot natijalar o'quvchilarning og'zaki so'z mant muallifini aniqlash mahoratini oshirishga doir ancha qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lganligini mamnuniyat bilan izhor etish joizdir. Demak, biz tomondan qo'llanilgan vatanparvarlik ruhidagi pedagogik tarbiya asoslarini amalga oshirish uslublari o'zining ijobiy natijasini topdi deyish mumkin bo'ladi. Bu esa o'quvchi-yoshlarni musiqa darslari orqali vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllanganlik darajasining oshganligi va pedagogik nuqtai nazardan tarbiyalashning amalga oshirish uslublari kabi optimal metodlardan biri hisoblanadi.

## **2.2. Maktab musiqa darslarida o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiya berishning amalga oshirish shakllari va uslublarining mazmuni.**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari"da oila, maktab va jamoatchilik oldidagi masuliyatni anglab yetadigan komil insonni tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Musiqa san'ati orqali yosh avlodni manaviy va axloqiy dunyosini har tomonlama kamol toptirish, estetik didni rivojlantirish muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish, milliy istiqlol g'oyasini tarbiyalash, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Xalqning manaviyati bo'lmasa, mustaqilligini mustahkamlab bo'lmaydi. Chunki bu ijtimoiy taraqqiyotning poydevoridir. "Xalqning manaviy ruhiyatini umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasini singdirish va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning muhim vazifalaridandir" deb takidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov.

"Milliy istiqlol g'oyasi" – prezidentimiz I. A. Karimovning ko'p yillik izlanishlariga taya'nib, o'z aksini topdi. Milliy istiqlol g'oyasi – o'ziga xos falsafiy, milliy va nazariy tarixiy ildizlarga ega bo'lgan yaxlit nazriyadir. Shu bois mustaqillik tufayli milliy istiqlol g'oyasini asosiy maqsadi:

- 1) Vatan ravnaqi;**
- 2) Xalq farovonligi;**
- 3) Millatlararo totuvlik;**
- 4) Oilalararo bag'rikenglik;**
- 5) Komil inson tarbiyasi.**

G'oya bu inson tafakkuri mahsulidir. Mafkura esa milliy g'urur, ijtimoiy qatlam, millat, orzu va intilishlardan iborat bo'lgan g'oyalar yig'indisidir. O'z navbatida mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi. Mafkura

– insonparvarlik, vatanparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillik eng oliy nemat ekanligini, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash har bir insonning burchi ekanligini singdirib boradi.

Musiqqa orqali milliy istiqlol g'oyasini o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham maqolaning asosiy maqsadi, dolzarbligi o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyasini qo'shiqlar va kuylar vositasida kamol toptirishdir.

Maqolaning maqsad va vazifalari qilib quyidagilarni belgiladik:

1) Musiqqa madaniyati darslarida milliy istiqlol g'oyasini qo'shiqlar vositasida shakllantirish.

2) Musiqqa madaniyati darslarida milliy istiqlol g'oyasini o'quvchi – yoshlar ongiga singdarish.

3) Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyalash ishlarida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirib borish.

4) Milliy istiqlol g'oyasini singdirish orqali Vatanga muhabbat, odob-ahloq, mehnatsevarlik, halollik tuyg'ularini rivojlantirish.

5) Mumtoz asarlar yordamida o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirishni bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borish.

7 sinf o'quvchilarida o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda faol o'zgarishlar ro'y beradi. Shunga qaramay 7 sinf o'quvchilari diqqat va e'tibori uyg'unlashgan, mustaqil fikr yurita oladigan, hajmi jihatidan kattaroq musiqiy asarlarni tinglashga va kuylashga qodir bo'ladilar. Ularning ovoz apparatlari to'liq shakllangan bo'ladi. Lekin, bu davrda ularning ovozlarini ehtiyot qilish maqsadga muvofiqdir. Ovoz diapazonlari uchun mos, baqirmasdan, ovoz pardalarini zo'riqtirmasdan kuylashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

7 sinfda yil mavzusi: "O'zbek musiqasida maxalliy musiqiy uslublar"

I chorak. "Qashqadaryo – Surxondaryo", "Samarqand – Buxoro" vohalari musiqiy uslublari bilan mashhur.

II chorak. «Farg'ona – Toshkent» vohalarining musiqiy uslublari.

III chorak. “Shashmaqom”.

IV chorak. “Xorazm maqomlari”, “Farg’ona – Toshkent” maqom yo’llari.

Maqolaning nazariy-uslubiy asoslari Prezident I. A. Karimov asarlari, “Ta’lim to’g’risidagi qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, dasturlar va darsliklar tashkil etadi.

Respublikamizdagi ta’lim-tarbiya jarayonini barcha sohalarda takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan. Ayniqsa, o’quvchilar bilimini oshirishida, zamonaviy fan va taraqqiyot yutuqlarining o’quv jarayoniga tadbiiq etilishi ancha natijalarni beradi. Bu borada Yurtboshimiz I.A. Karimov «Yosh avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz bosib o’tgan yo’li ibrat va tarbiya manbai bo’lmog’i lozim. Vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g’urur, milliy istiqlol g’oyasi, milliy iftixor kabi xalqimizga xos fazilatlar bizga ajdodlarimizdan meros bo’lib qolgan. Ular marifatni jamiyat taraqqiyotining garovi sifatida tashkil etganlar» - degan edi.

Bundan ko’rinib turibdiki, ajdodlarimiz ilmi, marifatli bo’lgandar va ilm marifat beshigini tebratganlar. Sharqning buyuk mutafakkirlari A. Navoiy, Z. M. Bobur, Al-Farg’oniy, Ibn Sino, Shayx Sadiy, Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, M. Kavkabiylar kabi olimlarimiz yaratgan asarlari bunga misol bo’la oladi. Ibn Sinoning fikricha, to’g’ri fikr yuritish, aqldan to’g’ri foydalanish, bilim va hunar egallash, balo-qazolardan saqlanish qoidasini o’rgatgan.

“Farzandlar tarbiyasini nihoyatda erta boshlash lozim. Shundagina farzand ilmi, zakovatli, oqil bo’ladi. Buning uchun maxsus tayyorgarlikni ko’rgan emas, ega bo’lgan, ezgu–niyatli va pokiza murabbiy–tarbiyachi taklif etilishi lozim”– deydi Yusuf Xos Xojib “Qutadg’u bilig” asarida.

Shunday ekan, yosh avlodni tarbiyasiga alohida e’tibor berib, ularni barkamol va yetuk inson qilib voyaga yetkazish bugungi kunda asosiy maqsadlardan biridir.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo’nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni uyg’unligi asosida belgilanadi.

Millat mavjud ekan, uning manaviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning o'ziga xos milliy usullarining mazmuni va yo'nalishi ham takomillashib boradi.

Milliy tarbiya tufayli jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan barcha tub islohotlarning mazmuni milliy tarbiya yordamida o'quvchilarning bilimni mustahkamlash va yangilanish jarayoni eng avvalo manaviy hayotda ko'zga tashlanmoqda. Yosh avlodga vijdon, poklik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalash, ta'lim – tarbiya sohasida asosiy maqsad hisoblanadi.

Milliy istiqloq g'oyasi orqali o'quvchi-yoshlarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash jarayonida o'quvchilarning umumiy madaniy saviyasi, manaviy kamolotining darajasi, milliy istiqloq g'oyasi va milliy o'z – o'zini anglashni yetukligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali, manaviy yetuk inson jamiyatni rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib boradi. Shuning bilan birga o'z millatining yutuqlarini ko'rib g'ururlanadi, o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'ladi. Xalq urf-odatlarini, ananalarini hurmat qiladi va Vatan ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Milliy istiqloq g'oyasi har bir mustaqil shaxsning o'z milliy g'oyasi va mafkurasi bo'lishini taqozo etadi. Kishining g'oyasi kuchli, mafkurasi hayotiy bo'lsa, o'sha xalq g'alaba qozonadi. O'quvchi-yoshlar milliy istiqloq g'oyasi mazmunini, milliy musiqiy qadriyatlarini, ananalarimiz orqali anglab boradilar.

Manaviy qadriyatlar – bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida manaviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy xodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jamiyatimizni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. Milliy tarbiya nazariyasi pedagogikaning umumiy qoidalari, ta'lim nazariyasi, milliy istiqloq g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda shunchaki, bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, balki ijodkor, istedodi bilan ajralib turuvchi yoshlarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta'lim olish jarayonida milliy tarbiya o'quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi (g'oyaviy, axloqiy, estetik,

irodaviy xislatlarini). Unda o'quvchilarga tabiatga, jamiyatga qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi. Yoshi ulg'aygan sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatga ega bo'lib boradi. Tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga, o'z ishiga va atrofdagilarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nikma hosil qiladi.

Milliy tarbiyaning mazmun-mohiyati quyidagilardan iboratdir.

- a) tarbiyani ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- b) tarbiyani insonparvar maqsadga qaratilganligi;
- v) tarbiyani hayot mehnat bilan bog'liqligi;
- g) tarbiyada milliy – madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni ustivorligi;
- d) o'quvchilarni yoshi, psixologik fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari hisobga olinishi.

Bu vazifalar ta'lim-tarbiyaviy samaradorlikni oshirish bilan birga, o'quvchilarni madaniy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. Bunda, asosan, o'quvchi-yoshlarning diqqat-e'tiborini, nafosatni his etishga, qolaversa, musiqa orqali o'sha xalq tarixi, madaniyati milliy cholg'u sozlari, mumtoz asarlari, ananalari orqali o'quvchilarda insonparvarlik g'oyalarini o'rgatishga zaruriyati bo'lib qoladi.

Insonni doimo go'zalikka intilishi va kundalik hayotda ana shu go'zalik qoidalariga amal qilib borishi milliy istiqlol g'oyasining amaliy belgilaridan biridir. Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur, yangicha fikrlash shakllandi. Yosh avlodga yagona pedagogik tizim jarayonida, vatanparvarlik tushunchalari mazmunini soddalashtirib tushuntirish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Zero, ta'lim tizimida yosh avlod ongida vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona-Vatan taqdiri, kelajagi yoshlar qo'lida ekan, o'quvchi-yoshlarni yoshlik chog'laridan boshlab kasb-hunarga o'rgatish, dunyoviy ilmlarni tafakkuri va ongiga singdirish yo'li bilan bir qatorda tartib-intizomni, odob-ahloqni, kamtarin, ochiq yuzli, yuksak didli, qalbi pok va albatta yuksak madaniyatli kishilar qilib



tarbiyalab borish bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shunday ekan, inson ma'naviyatining muhim parchasi yoki bulagi bo'lgan musiqiy madaniyat poydevorining birinchi g'ishtlari umumta'lim maktablarida qo'yiladi. Bu borada barcha fanlar qatori musiqa madaniyati darslarining imkoniyatlari benihoya beqiyosdir.

Viloyatimiz shahar va tumanlaridagi umumta'lim maktablarida olib borilgan kuzatishlarimiz, sosiologik va pedagogik tahlillarimiz umumta'lim maktablaridagi to'plangan barcha xildagi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchi-yoshlarda musiqa darslariga nisbatan istak va xohishlari bir muncha pasayganligi malum bo'ldi. Bizning bitiruv malakaviy ishimizda ko'tarilgan masalalarni tadqiq qilishda tadqiqot natijalarimiz ayrim maktablarda olib borilsada biz tomondan olg'a surilgan va taklif qilingan uslublar va o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida musiqa madaniyati darslari yaxshi tomonga o'zgarganligi aniqlandi. Biz tomondan taklif etilgan va tajriba jarayonida sinovdan o'tgan, mavzu obraz, yaratuvchi, ijrochi modeli Samarqand viloyatining barcha shahar va tumanlaridagi o'qishlar ya'ni ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida qo'llanilsa, yoki umumiy tarzda ommalashtirilsa tez orada biz tomondan ilgari surilgan pedagogik natijalarga erishiladi deb o'ylayman.

## X U L O S A

Biz tomondan ilgari surilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarning vatanparvarlik his-tuyg'ularini o'stirishda musiqa vositasi muhim rol o'ynaydi. Musiqa asarlarini o'quvchilar tafakkuriga, ongiga tizimli singdirish, idrokini taminlash borasida sustkashlikka yo'l qo'yayotgan yoki musiqa madaniyati faniga nisbatan jiddiy etibor bermayotgan rahbarlar va musiqa madaniyati o'quvchi-yoshlarga saboq berayotgan o'qituvchilar o'z navbatida o'quvchilarni musiqa madaniyatidan, musiqa san'atidan to'laqonli bahra olishga erisha olmayotirlar. Ayni paytda o'quvchilarning ahloqiy estetik sifatlarini tarbiyalash, doimiy nazorat monitoringini olib borish, kuzatuv va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga (jamoaga bo'lib kuylash, ansambllar, to'garaklar, an'anaviy qo'shiqchilik va ijrochilik hamda folklor) yetarli darajada jalb qilmayotganliklari, pedagogik-psixologik usullardan foydalanish ko'ngiklagidek emas.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiya qilishning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni uyg'unligi asosida belgilanadi. Millat mavjud ekan, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan tarbiya'ning o'ziga xos milliy usullari mazmuni va yo'nalishi ham takomillashib boradi.

Milliy tarbiya tufayli jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan, ya'ni milliy tarbiya yordamida o'quvchilarning bilimini va mustaqilligini anglash o'zgarishlar, yangilanish jarayoni, eng avvalo ma'naviy hayotda ko'zga tashlanmoqda. Yosh avlodga vijdon, poklik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalash, ta'lim – tarbiya sohasida asosiy maqsad hisoblanadi. Aqlan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat milliy masuliyat tuyg'usini anglaydilar, o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazgan mamlakatning mustaqil va barqaror rivojlana boradi.

Izlanishlarimizdan kelib chiqib, uslubchi o'qituvchilar uchun o'zining keyingi pedagogik mahoratlarini oshirishda, yaxshi samara berishini ko'rsatib,

umumta'lim o'quv dasturida ko'zda tutilgan musiqa mashg'ulotlarini chuqur va yorqin idrok etish saviyasini aniqlash imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishni olib borish va yakunlash ishida tadqiqot olib borish shuni aniqladiki:

- musiqa bu san'at olami sifatida o'quvchilar tomonidan, o'zining aniqligi, mazmun mohiyati jihatidan idrok etiladi;

- musiqa asarining yorqinligi va jozibadorligi bilan u san'at olami, vositasi sifatida o'quvchilarda his-tuyg'u hamda hayajonni shakllantirishda muhim vosita ham tarbiyaviy qurol sifatida ta'sir ko'rsatadi;

- ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslaridagi o'quvchi-yoshlar ta'limi uchun maxsus tuzilgan "musiqa" maktab dasturiga kiritilgan musiqiy asarlar, agar hayotiy voqyelik, turmush tajribasi bilan aloqadorligi musiqa madaniyati darslarida tamin etilgan bo'lsa u holda to'laqonli vatanparvarlik his-tuyg'ularni o'stirishga yordam beradi va imkoniyat doirasi kengayib boradi;

- o'quvchilarning musiqa madaniyat darslarida hosil qilgan musiqali idroki, musiqiy asarlarni o'zlashtirishi va ijro qilishi bilan belgilanadi;

- musiqa madaniyati darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda asarlarning musiqiy ta'sirchanlik vositalariga bo'lgan qiziqishlarini yanada faollashuviga qaratilgan turli xil uslubiy usullar muhim o'rin tutadi;

- bitiruv malakaviy ishning borishida nazariy tomondan asoslangan va tajriba-sinoy maydonchalarida sinovdan o'tgan uslub-yoshlar ongida vatanparvarlik his-tuyg'ularini o'stirish, tizimli tarbiyalab borish ijobiy hal etilish yo'li bilan umumta'lim maktablaridagi musiqiy ta'lim-tarbiya'ning amaliy ijrosini taminlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Yangilanish va taraqqiyotning o'ziga xos yo'li.-Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 1992 y, 20-bet.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Yangilanish va taraqqiyotning o'ziga xos yo'li.-Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 1992 y, 28-bet.
3. Kabalevskiy D.B. Maktabda estetik madaniyat. Moskva, Pedagogika.-1970.-№1, 24-38 betlar.
4. Kabalevskiy D.B. Prekrasnoye probujdayet dobroye. Estetik tarbiya: maqola, maruza, chiqishlar.-M.: Pedagogika, 1973 y, 332 bet.
5. Astafyev B. Musiqa ta'limi.Tanlangan asarlar. 2-nashri.-L.: Nauka, 1973 y, 144 bet.
6. Apraksina O.A. Iz istorii muzыkalnogo vospitaniya.-M.: Muzyka, 1974 y, 86 bet
7. Suxomlinskiy V.A. Tarbiya haqida. M.: 1973y, 100 b.
8. Kiyamov N.S. Maktab musiqa darslarida vatanparvarlik va baynalmilal tarbiya'ni o'ziga xosligi. Tosh. O'quvnashr. 1992 yil.
9. Janaydarov Sh. Musiqa to'garaklari orqali yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi. Avtoreferat. Toshkent 1991 yil, 18 bet.
10. Nurmatov X.N. Maktabda musiqa.- Toshkent: fan, 19992 y, -86 bet.
11. Sakkiz yillik maktab musiqa dasturi. Musiqa. IV-VII sinflar. – Toshkent: O'qituvchi, 1984 y, - 27 bet
12. Kiyamov N.S. Musiqa darslarida o'smirlarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish. Toshkent, 1995 y, ped.fan.nom. Avtoreferat 22-bet.
13. O'quvchi shaxsining ahloqiy sifatlarini shakllantirish. Nizomiy nomli TashDPI. – 1991 y, 10-bet. Ilmiy maqolalar to'plami.

14. Musiqa ta'limi va tarbiyasi birligi. Nizomiy nomli ToshDPI. Ilmiy maqolalar to'plami. №1 son. Toshkent. – 1996 y, 3-bet.
15. Yo'ldosheva S.H. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Toshkent. – O'qituvchi nashriyoti, -1985 yil, 3-bet.
16. Qodirov M. Badiiy tarbiya va havaskorlik. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. №12, 3-5-betlar.
17. Mo'minova D. Davrimiz qo'shiqlari. Toshkent. Fan nashriyoti, 1977 yil 3-10 betlar.
18. Musabekova S.I. Musiqa tarbiyasi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1973 yil, 86-90 betlar.